

ORALIQ EKIN: TUPROQ UNUMDORLIGI VA
IQTISODIY SAMARADORLIK

Sh.I. Mamatojiev

dotsent, q.x.f.n.,

Yursunova Sh. E.

kafedra o'qituvchisi

“Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish va

dorivor o'simliklar” kafedrasida

Farg'ona davlat universiteti.

Annotatsiya: *Tuproq unumdorligi deganda, o'simlikning butun o'suv davri davomida suv va oziq moddalar bilan yaxshi ta'minlanib, gektar hisobiga yuqori hosil olinishi tushuniladi. Tuproq unumdorligi uning doimiy va xech o'zgarmaydigan sifati emas. Inson yerga to'g'ri oqilona ta'sir etganda tuproqning unumdorligi uzluksiz oshib, ekinlardan muttasil yuqori hosil olish ta'minlanadi. Unumdorlik sharoiti tuproqning tabiiy hususiyatiga bog'liq bo'libgina qolmasdan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish vositalari ta'sirida, yani tuproqni madaniylashtirish natijasida xosil bo'ladi. Unumdorlik sharoiti yaxshi, yani madaniy tuproqlarda o'simlikning tuproqdagi unumdor elementlar bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Tuproqning unumdorlik darajasi undagi chirindi va mikroorganizmlar miqdori, tuproq muxiti, donadorligi, qattiq yoki yumshoqligi, tuzilish, haydalma qatlam qalinligi va boshqa ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi. Tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy sifat belgisi deb ta'riflangan chirindi yoki gumus miqdorini ko'paytirishda va mikroorganizmlar faoliyatini yaxshilashda oraliq ekinlarning ham ahamiyati katta. Oraliq ekin ya'ni birinchi asosiy ekilgan ekinning hosili yig'ishtirib olingandan so'ng ikkinchi asosiy ekinni ekkunga qadar o'stiriladigan ekinlarga aytiladi.*

Kalit so'zlar: *Mehnat unumdorligi, tuproqning unumdorlik darajasi, dehqonchilik madaniyati, yuqori hosil, tuproq unumdorligining kamayishi, hosilning pasayishi, agronomik va melioratsiya tadbirlari, mikroorganizmlar miqdori, tuproq muxiti, donadorligi, qattiq yoki yumshoqligi, tuzilish, haydalma qatlam qalinligi, oraliq ekin, ismaloq (shpinat), aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish.*

Аннотация: *Плодородие почвы означает, что растение хорошо снабжается водой и питательными веществами в течение всего вегетационного периода, что приводит к высокому урожаю с гектара. Плодородие почвы не является ее постоянным и неизменным качеством. Когда человек правильно рационально воздействует на землю, плодородие почвы непрерывно увеличивается, обеспечивая неизменно высокие урожаи сельскохозяйственных культур. Условия плодородия не только зависят от естественного характера почвы, но и формируются под воздействием средств сельскохозяйственного производства, то есть в результате окультуривания почвы. Условия плодородия хорошие, то есть на культурных почвах улучшается снабжение растения плодородными элементами в почве. Уровень плодородия почвы зависит от количества гумуса и микроорганизмов в ней, почвенной*

среды, зернистости, твердости или рыхлости, структуры, толщины пахотного слоя и других показателей. Определяется как основной признак качества, определяющий плодородие почвы при увеличении количества перегноя и активности микроорганизмов в улучшении также велика роль промежуточных культур. Промежуточной культурой называют те культуры, которые выращиваются до посева второй основной культуры после уборки урожая первой основной посевной культуры.

Ключевые слова: Производительность труда, уровень плодородия почвы, культура земледелия, высокая урожайность, снижение плодородия почвы, снижение урожайности, агрономические и мелиоративные мероприятия, количество микроорганизмов, почвенная среда, зернистость, твердость или рыхлость, структура, толщина пахотного слоя, промежуточные культуры, шпинат, занятость населения, увеличить уровень доходов.

Annotation: *Soil fertility is understood to mean a high yield at the expense of hectares, being well supplied with water and nutrients throughout the entire growing season of the plant. Soil fertility is not its constant and unchanging quality. When a person has a proper rational impact on the Earth, the fertility of the soil is continuously increased, and a consistently high yield from crops is ensured. Not only will the conditions of fertility depend on the natural peculiarity of the soil, but it will also become characteristic under the influence of agricultural means of production, that is, as a result of the cultivation of the soil. Fertile conditions are good, that is, on cultural soils, the supply of the plant with fertile elements in the soil is improved. The level of fertility of the soil depends on the amount of humus and microorganisms in it, soil motility, granularity, hard or softness, structure, plowing layer thickness and other indicators is determined. Described as the main quality mark that determines soil fertility when increasing the amount of humus or humus and the activity of microorganisms in improvement, intermediate crops are also of great importance. The intermediate crop is said to be the crops that are grown until the second main crop is planted after the harvest of the first main crop has been harvested.*

Keywords: *labor productivity, soil fertility rate, farming culture, high yield, reduced soil fertility, crop decline, agronomic and melioration measures, amount of microorganisms, soil autonomy, granularity, hard or softness, structure, plowing layer thickness, intermediate crop, spinach, employment of the population, increasing their income.*

Ekinlardan barqaror yuqori hosil olish va ishlab chiqarishda mehna unumdorligini oshirish bevosita tuproqning unumdorlik darajasiga hamda dehqonchilik madaniyatiga bog'liq. Tuproq unumdorligi deganda, o'simlikning butun o'suv davri davomida suv va oziq moddalar bilan yaxshi ta'minlanib, gektar hisobiga yuqori hosil olinishi tushuniladi. Tuproq unumdorligi uning doimiy va xech o'zgarmaydigan sifati emas. Inson yerga to'g'ri oqilona ta'sir etganda tuproqning unumdorligi uzluksiz oshib, ekinlardan muttasil yuqori hosil olish ta'minlanadi. Aksincha, yerga noto'g'ri ishlov berish agrotexnika tadbirlarini pala-partish amalga oshirish esa tuproq unumdorligining kamayishiga va hosilning pasayishiga sabab bo'ladi.

Dehqonchilikda ilmiy asoslangan agronomik va melioratsiya tadbirlari kompleks qo'llanilganda tuproq unumdorligi sistematik oshishi natijasida o'simliklar zarur oziq moddalar bilan ta'minlanib, yuqori hosil olishga imkon yaratiladi. Unumdorlik sharoiti tuproqning tabiiy hususiyatiga bog'liq bo'libgina qolmasdan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish vositalari ta'sirida, yani tuproqni madaniylashtirish natijasida xosil bo'ladi. Unumdorlik sharoiti yaxshi, yani madaniy tuproqlarda o'simlikning tuproqdagi unumdor elementlar bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Tuproqning unumdorlik darajasi undagi chirindi va mikroorganizmlar miqdori, tuproq muxiti, donadorligi, qattiq yoki yumshoqligi, tuzilish, haydalma qatlam qalinligi va boshqa ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi.

Tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy sifat belgisi deb ta'riflangan chirindi yoki gumus miqdorini ko'paytirishda va mikroorganizmlar faoliyatini yaxshilashda oraliq ekinlarning ham axamiyati katta. Oraliq ekin ya'ni birinchi asosiy ekilgan ekinning hosili yig'ishtirib olingandan so'ng ikkinchi asosiy ekinni ekkunga qadar o'stiriladigan ekinlarga aytiladi.

Yerlardan unumli foydalanish, avgust oyining oxiri, sentabr oyining boshlarida oraliq ekin sifatida to'la qonli hosil beraoladigan ekinlar ekishni izchil yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bunday ishlarni amalga oshirish yerga muhim profilaktik shifobaxshlik kasb etishi, tuproqni organik modda va ko'proq azot bilan boyitishi bilan birga, birinchi navbatda bozorlarimizni qish oylarida ham vitamanga boy bo'lgan sabzavotlar va ko'katlar bilan to'ldirish, aholini muntazam ish bilan ta'minlash hamda ularni daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Bir necha yillardan buyon Uchko'prik tumanida faoliyat olib borayotgan, A.Payg'ambarov rahbarligidagi Azizov Akbarali nomli fermer xo'jaligida olib borilayotgan ishlar yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarning xosilasidir. 2021 yil avgust-sentabr oylarida fermer xo'jaligining boshqoli dondan bo'shagan, 2022 yilda g'o'za ekish rejalashtirilgan maydonlardan o'n gektari fermer xo'jaligi a'zolarining moddiy manfaatdorliklarini oshirish va kuzgi-qishgi davrda ish bilan ta'minlash maqsadidam taqsimlab berildi. Bu maydonlarga ismaloq (shpinat) ekilib parvarish qilindi va ko'katlar yetishtirilib respublikamizning turli shaharlari bozorlariga yetkazi berildi. Maxsulotlarni yetishtirish bilan bog'liq xarajatlar (yerni haydash, tekislash, egat-pol olish, ekish, urug'lik, yoqilgi, mineral o'g'it, yig'ishtirib olish) har bir gektar hisobiga 5120 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, olingan daromad 30100 ming so'mni yoki har bir gektar hisobiga 24980 ming so'mdan sof daromad olindi. 2021 yilda, birgina tumandagi Qummozor qishlog'ining o'zida faoliyat olib borayotgan fermer xo'jaliklarining 20 gektar maydonida bu ekin ekib o'stirildi. Yuqoridagi amalga oshirilayotgan ishlar aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish bo'lsa, ikkinchi tomondan bu oraliq ekin qoldiqlari va ildizi tuproq unumdorligini oshirishda muxim omil bo'lmoqda.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдуалимов Ш.Х., Каримов Ш. О полевоm испытании микробиологического препарата Замин-М на хлопчатнике // Қишлоқ хўжалиги экинлари селекцияси ва уруғчилиги соҳасининг ҳозирги ҳолати ва ривожланиш истикболлари. ТошДАУ ва ПСУЕАИТИ мақолалар тўплами 2-қисм. -Тошкент, 2015. -Б. 318-321.



2. Абдуалимов Ш.Х., Абдуллаев Ф.А. Гуминли стимуляторларни ғўзада қўллашнинг самарадорлиги. Монография. -Тошкент, 2019. -Б. 42-43.

3. Каримов Ш. Ғўзанинг қуруқ масса тўплаши ва фотосинтез маҳсулдорлигига янги стимуляторларнинг таъсири.// Тупроқ унумдорлигини ошириш, ғўза ва ғўза мажмуидаги экинларни парваришлашда манба тежовчи агротехнологияларни амалиётга жорий этишнинг аҳамияти. Халқаро илмий-амалий анжуман маърузалари тўплами. -Тошкент, 2012. -Б.156-158.

4. Каримов Ш.А. Янги стимуляторларни ғўза барг юзаси ва фотосинтез маҳсулдорлигига таъсири. // Дала экинлари селекцияси, уруғчилиги ва агротехнологияларининг долзарб йўналишлари. Халқаро илмий-амалий конференция тўплами. Тошкент, 2016. -Б.371-374.

5. Хамади А.М., Бабаев Т.Н. Влияние стимулятора Т динамику содержания растворимых белков хлопчатника в раннем онтогенезе // Ж. Биология. 1990. -№ 2. -С.3-5.